

**O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tizimi
davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq
QOIDALARI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tizimi davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloq qoidalarini (keyingi o'rinlarda Odob-axloq qoidalarini deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, hududiy statistika organlari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti davlat fuqarolik xizmatchilarining (keyingi o'rinlarda Statistika organlari davlat xizmatchilari deb ataladi) kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati davomida hamda xizmatdan tashqari vaqtda odob-axloqi, tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubining namunaviy qoidalarini belgilaydi.

Odob-axloq qoidalarini davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda davlat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

2. Statistika organlari davlat xizmatchilari o'z kasbiy faoliyatini qonuniylik, Vatanga sadoqat va xizmat vazifasiga fidoyilik, yuklangan funksional vazifalarini to'liq bajarish, ijro intizomiga qat'iy rioya etish, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik, adolatlilik, halollik va xolislik, adolatlilik, halollik va xolislik, korrupsiyaviy holatlarga murosasiz munosabatda bo'lish va qarshi kurashish, xizmat sirini qat'iy saqlash, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik prinsiplari asosida amalga oshirishi shart.

3. Statistika organlarining davlat xizmatchilari mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtda xulq-atvorning quyidagi umumiy qoidalariga amal qilishi lozim:

davlat xizmatining obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish; mas'uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shiorga aylantirish; murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko'maklashish; xushmuomalalik, e'tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg'otish; oilasida sog'lom muhitni ta'minlab, oila a'zolariga doimiy g'amxo'r bo'lish, farzandlarida vatanparvarlik va boshqa yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat'iy nazar, ular bilan bir xil, samimiy, Odob doirasida munosabatda bo'lish;

jamiyatda axloqning umume'tirof etilgan qoidalariga amal qilish.

4. Statistika organlari davlat fuqarolik xizmatchilari o'z vakolatlarini amalga oshirayotganda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" Qonuni, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" Qonuni hamda "Rasmiy statistika to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Odob-axloq qoidalariga, Statistika organlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki me'yoriy hujjatlari, Statistika organlarining nizomlari, Statistika organlari tarkibiy bo'linmalarining nizomlari, Statistika organlari xodimlarining lavozim yo'riqnoma-lariga amal qiladi.

5. Statistika organlari davlat fuqarolik xizmatchilari Odob-axloq qoidalariga rioya qilish majburiyatiga, fuqarolar esa davlat xizmatchilaridan mazkur qoidalarga mos bo'lgan kasbiy madaniyatni talab qilish huquqiga ega.

6. Statistika organlari davlat fuqarolik xizmatchilari Odob-axloq qoidalariga rioya etishi ularning faoliyati hamda xizmatdagi axloqini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi holati ularni kelgusida yuqori lavozimlarga tayinlash va rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

2-bob. Kasbiy madaniyatga oid umumiy odob-axloq qoidalari

7. Statistika organlari davlat xizmatchilari:

fuqarolarning jinsi, irqi, millati, fuqaroligi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei kamsitilishiga Olib keluvchi ta'sir choralari va harakatlar (harakatsizlik)ga yo'l qo'ymasligi;

halol, adolatli va kamtar bo'lishi, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala, vazmin va samimiy munosabatni namoyish qilishi; jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qarorlarni qabul qilishda qonuniylikni, adolatlilikni va shaffoflikni ta'minlashi; davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini pasaytiradigan harakatlar (harakatsizlik)dan tiyilishi; o'zining xatti-harakati va axloqi tufayli jamoatchilikning tanqidiga uchramaslik choralari-ni ko'rishi, tanqid uchun ta'qibga yo'l qo'ymasligi, asosli va konstruktiv tanqiddan o'z faoliyatidagi kamchiliklar hamda nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida foydalanishi; davlat organlari va tashkilotlari, davlat xizmatchilari va boshqa shaxslarga o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda shaxsiy masalalar yuzasidan ta'sir o'tkazmasligi;

o'z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg'alar olmasligi;

davlat mulkining butunligicha saqlanishini ta'minlashi, o'ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;

korruptsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish hamda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;

xizmat intizomiga qat'iy rioya qilishi, ish vaqtidan oqilona va samarali foydalanishi; aholining davlat xizmatlari iste'molchisi sifatidagi talablariga muvofiq, doimiy ravishda faoliyat sifatini oshirib borish choralarini ko'rish;

qonun bilan intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan huquqbuzarlik va boshqa xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi; kasb etikasi va ishchanlik uslubiga rioya etishi; siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlar manfaatlarini yo'lida xizmat mavqei va imkoniyatlaridan foydalanmasligi kerak.

8. Statistika organlari davlat xizmatchilari o'ziga bo'ysunuvchi xodimlardan ular mehnat vazifasini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni talab qilishi, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishga da'vat etishi yoki majburlashiga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Xizmat faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari

9. Statistika organlari davlat xizmatchilari xizmat faoliyati davomida quyidagilarga majbur:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga so'zsiz rioya etishi; mamlakat sha'nini e'zozlash, davlat siyosatiga sodiq bo'lish; tashqi siyosat sohasida davlat manfaatlarini qat'iy himoya qilish; o'z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste'molchilikka yo'l qo'ymaslik;

xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni doimiy asosda oshirish; yuqori davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari hamda berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish; ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarga biron-bir shaxs, guruh yoki idoralar manfaati nuqtayi nazaridan yondashmaslik hamda ularning manfaatlarini ifoda etilishiga yo'l qo'ymaslik; har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korruptsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish hamda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik; xizmat safarlari, nazorat tadbirlari davomida mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday turdagi sarf-xarajatlarni boshqa shaxslar hisobidan amalga oshirmaslik; davlat xizmatchilari yoki boshqa shaxslar tomonidan jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga undovchi murojaatlar haqida, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko'rilayotgan qonunbuzilishlar, korruptsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida o'zining rahbariga zudlik bilan ma'lum qilish;

chet el fuqarolari bilan alohida belgilangan tartibga zid ravishda bevosita yoki boshqa shaxslar orqali muloqotga kirishmaslik; o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda fuqarolar va boshqa shaxslarni kamsitmaslik, ularning ta'siridan saqlanish, fuqarolar huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish;

o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan saqlanish; davlat siri, qonun bilan qo'riqlanadigan va xizmatga oid

boshqa ma'lumotlarning oshkor etilmasligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rish, ulardan qonunga zid ravishda foydalanmaslik; axborotlarni tarqatish qoidalariga rioya qilish, Internet jahon axborot tarmog'i va axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlashning belgilangan tartibiga amal qilish; biriktirilgan xizmat kompyuteri hamda elektron tashuvchilaridagi xizmatga oid ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishini ta'minlash va ularni boshqa shaxslarga tarqatilishining oldini olish choralari ko'rish; ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar faoliyatini muhokama qilmaslik, axloqqa zid iboralarni ishlatmaslik, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan odamlarda ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan materiallarni joylashtirmaslik; fuqarolar va hamkasblarining sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiruvchi ma'lumotlar, tuhmat, ig'vo va uydirmalarni tarqatmaslik; mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so'zlashish va kiyinish madaniyatiga qat'iy rioya etish; o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish; jamoada sog'lom ma'naviy muhitni saqlash choralari ko'rish; jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qilish;

mehnat jamoasida ishchanlik muhitini shakllantirish va uni mustahkamlashga ko'maklashishi; mehnat jamoasida hamkasblarining sha'ni va qadr-qimmatini obro'sizlantiradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini muhokama qilishdan tiyilishi kerak.

10. Statistika organlari rahbarlari quyidagilarga majburlar:

bo'ysunuvidagi davlat xizmatchilariga professionalizm, halollik, xolislik va adolatlilikda o'rnak bo'lish; jamoada sog'lom ma'naviy muhitni va ishchan kayfiyatni shakllantirish; davlat xizmatchilarini qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undamaslik hamda ulardan bunday harakatlarni bajarishni talab qilmaslik;

kadrlarni mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash, tayinlash yoki tavsiya etishga yo'l qo'ymaslik; jamoada guruhbozlik va favoritizm (ayrim xodimlarni yaqin olish va qo'llab-quvvatlash) ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning oldini olish;

davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga baho berishda qonuniy, asosli va adolatli qarorlar qabul qilish; davlat xizmatchilari tomonidan korrupsiya va boshqa suiiste'molchiliklar sodir etilishining oldini olish choralari ko'rish; bo'ysunuvidagi davlat xizmatchilarini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish choralari ko'rish; vakolati doirasida shartnomalar tuzish, tanlovlar o'tkazish yoki rozilik berish masalalariga xolis, adolatli va qonuniy yondashish.

11. Statistika organlari rahbarlari bo'ysunuvidagi Statistika organlari davlat xizmatchilariga qo'pol muomalada bo'lishi, haqorat qilishi, shaxsiyatiga tegishi, ularga asossiz tanbeh berishi yoki ayblashi hamda kamsitishi mumkin emas.

4-bob. Xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalari

12. Statistika organlari davlat xizmatchilari ishdan bo'sh vaqtlarida umumqabul qilingan axloq normalariga rioya qilishlari va ularga zid bo'lgan xulq-atvor va xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishlari shart.

13. Statistika organlari davlat xizmatchilari ishdan tashqari vaqtda quyidagilarga majbur:

milliy urf-odat, qadriyat va an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lish; dabdababozlik, shuhratparastlik, guruhbozlik, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yo'l qo'ymaslik;

rasmiy e'lon qilingan ma'lumotlardan tashqari davlat xizmati faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilmaslik; jamoat joylarida (kafe, restoran va boshqa ko'ngilochar maskanlarda) o'zini tutish qoidalariga rioya etish, atrofdagilarning e'tiborini tortuvchi ortiqcha va salbiy harakatlarga yo'l qo'ymaslik; jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etmaslik, mazkur noqonuniy harakatlarga boshqalarni jalb etmaslik yoki da'vat qilmaslik; xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan idora va tashkilotlar rahbar va xodimlaridan, boshqa mansabdor shaxslaridan qimmatbaho sovg'a olmaslik; xizmat guvohnomalarini saqlash va foydalanish tartibiga qat'iy rioya etish, ulardan xizmatga aloqador bo'lmagan holatlarda foydalanmaslik, shu jumladan, vakolatli shaxslarga xizmat guvohnomasini ko'rsatib, mavqeini suiiste'mol qilmaslik;

xizmat avtotransport vositalaridan xizmat faoliyatidan tashqari holatlarda shaxsiy va boshqa maqsadlarda foydalanmaslik;

ish faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni ishga aloqador bo'lmagan boshqa shaxslar ishtirokida muhokama qilmaslik;

shaxsiy transport vositalaridan foydalanishda belgilangan tartibga amal qilish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etish;

tadbirkorlik yoki haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan (pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari) shug'ullanmaslik, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

o'zi faoliyat yuritgan Statistika organlari hamda davlat xizmatiga dog' tushiruvchi xatti-harakatlardan tiyilish; tashqi ko'rinishini belgilangan me'yorlar doirasida saqlash, kamtarona kiyinish, atrofdagilarning e'tiborini o'ziga ortiqcha jalb qiladigan tarzda kiyinmaslik.

5-bob. Jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlarga oid odob-axloq qoidalar

14. Statistika organlari davlat xizmatchilari ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilishi, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga ko'maklashishi kerak.

15. Davlat siyosati yoki Statistika organlari faoliyati to'g'risidagi ommaviy bayonotlar Statistika organlari rahbarlari yoki mazkur yo'nalish bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

16. Quyidagi hollarda ommaviy bayonot berilishi mumkin emas:

ommaviy bayonot matni va mazmuni davlat siyosati yoki Statistika organlari faoliyatiga aloqador bo'lmasa; ommaviy bayonotda keltiriladigan axborotlar davlat sirlari bilan bog'liq bo'lsa; ommaviy bayonot boshqa davlat organlari va tashkilotlari nufuzini pasaytirish yoki ularning mansabdor shaxslarini kamsitishga yo'naltirilgan bo'lsa.

17. Statistika organlari davlat xizmatida jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida jamoatchilik tomonidan Statistika organlari davlat xizmati faoliyatiga oid ayblov yoki tanqid bildirilgan taqdirda, Statistika organlari davlat xizmati unga nisbatan bildirilgan ayblov yoki tanqidga ommaviy izoh yoxud raddiya berishi lozim.

18. Agar ommaviy bayonotda fuqarolarning sha'ni hamda qadr-qimmatini kamsitadigan iboralar bo'lsa, davlat xizmatchisi o'z fikrlarining yanglishligi yoki noto'g'riligini tan olishi hamda sha'ni, qadrqimmatiga va ishchanlik obro'siga daxl qilingan fuqarodan, agar qonunchilik hujjatlarida boshqa oqibatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, kechirim so'rashi shart.

6-bob. Xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalar

19. Statistika organlari davlat xizmatchilarining xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubi fuqarolarning Statistika organlari faoliyatiga hurmatini, shu jumladan davlat xizmatining nufuzini oshirishga xizmat qilishi kerak.

20. Statistika organlari davlat xizmatchisining tashqi ko'rinishi mehnat sharoitlari va xizmat turiga qarab, xizmat majburiyatlarini bajarishi vaqtida fuqarolarning Statistika organlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi va rasmiylik, xolislik, kamtarlik va intizomni namoyon etishi lozim.

21. Statistika organlari davlat xizmatchilarining ish joyida tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubiga oid qo'shimcha talablar idoraviy odob-axloq qoidalar hamda ichki mehnat tartibida belgilanishi mumkin.

7-bob. Manfaatlar to'qnashuvi

22. Statistika organlari davlat xizmatchilari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak.

23. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda Statistika organlari davlat xizmatchilari o'zining rahbarini darhol xabardor qilishi shart.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni baftaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishga majbur.

8-bob. Davlat xizmatchilarining manfaatini himoya qilish

24. Statistika organlari davlat xizmatchilari xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq tahdid, haqorat, tuhmat va qonunga xilof boshqa xatti-harakatlardan himoya qilish Statistika organlari rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

25. Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga to'sqinlik qilish, jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga og'dirishga qaratilgan murojaatlar, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki sodir etishga tayyorgarlik ko'rilayotgan qonunbuzilishlar haqida xabar bergan xodimlarni vujudga kelishi mumkin bo'lgan tahdid va xavf-xatarlardan himoya qilish choralari ko'riladi.

9-bob. Odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish

26. Statistika organlari davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat Statistika organlari kadrlar bo'linmalari yoki Odob-axloq komissiyalari, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

27. Statistika organlariga lavozimga tayinlangan davlat xizmatchilari Statistika organlari Inson resurslarini rivojlantirish bo'linmalari tomonidan mazkur Odob-axloq qoidalariga bilan tilxat asosida imzo qo'ydirgan holda tanishtiriladi.

28. Mazkur Odob-axloq qoidalarini buzish holatlari bo'yicha xizmat tekshiruvi Statistika organlari rahbarining ko'rsatmasiga muvofiq Odob-axloq komissiyalari tomonidan o'tkaziladi.

Xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi Statistika organlari tomonidan belgilanadi.

10-bob. Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik

29. Statistika organlari davlat xizmatchilari tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik holati ularga nisbatan axloqiy va intizomiy ta'sir choralari qo'llash uchun asos bo'ladi.

30. Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik uchun Statistika organlarining Odob-axloq komissiyasi tomonidan davlat xizmatchilariga quyidagi axloqiy ta'sir choralari qo'llaniladi:

ogohlantirish;

uzr so'rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;

Statistika organlarining kollegial yig'ilishlarida tanbeh berish.

31. Statistika organlari Odob-axloq komissiyasi Statistika organlari davlat xizmatchisiga nisbatan intizomiy ta'sir chorasini qo'llash uchun Statistika organlari rahbariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

Statistika organlari Odob-axloq komissiyasi odob-axloq qoidalariga Statistika organlari rahbari tomonidan buzilgan taqdirda, ularga nisbatan tegishli chora ko'rish masalasi yuzasidan Milliy statistika qo'mitasi raisiga yuboradi.

32. Statistika organlari davlat xizmatchisining Odob-axloq qoidalarini buzishi ularni qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

11-bob. Yakuniy qoida

33. Statistika organlari davlat xizmatchilari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mazkur Odob-axloq qoidalariga muvofiq o'z idoraviy odob-axloq qoidalarini tasdiqlaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tizimining
Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Statistika organlarida Odob-axloq komissiyalari (keyingi o'rinlarda — Komissiya) faoliyatini tartibga soladi.

2. Komissiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, hududiy statistika boshqarmalari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti (keyingi o'rinlarda Statistika organi deb ataladi) davlat fuqarolik xizmatchilari (keyingi o'rinlarda — davlat xizmatchilari) tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, ularning axloq normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarini oldini Olish va odob-axloq qoidalariga rioya etish bilan bog'liq nizolar ko'rib chiqiladi.

Hududiy statistika boshqarmalari rahbariyati hamda Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktori tomonidan Odob-axloq qoidalarining buzilishi Milliy statistika qo'mitasining Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Tuman (shahar) statistika bo'limlari rahbarlari va xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalarining buzilishi hududiy statistika boshqarmalarining Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

3. Komissiya faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" Qonuni, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" Qonuni hamda "Rasmiy statistika to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilari odob-axloqining Namunaviy qoidalariga, Statistika organlarining ichki meyoriy hujjatlariga hamda ushbu nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Komissiya Komissiya raisi, kotibi va azolaridan iborat bo'lib, umumiy soni besh nafar a'zodan iborat (toq sonda bo'lishi lozim) tarkibda tashkil etiladi.

Komissiya tarkibiga tajribali, mehnat jamoasida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan davlat xizmatchilari kiritiladi.

Komissiya tarkibi Davlat statistika organining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o'zgartirish kiritiladi.

2-bob. Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Statistika organi davlat xizmatchilarining idoraviy odob-axloq qoidalarini ishlab chiqish;

Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalarini ko'rib chiqish, xizmat tekshiruvlarini o'tkazadi;

Statistika organi davlat xizmatchilari o'rtasida axloq normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning Statistika organi davlat xizmatchilarining xatti-harakatlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi;

Statistika organi davlat xizmatchilarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

Statistika organi davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi holatini tahlil qilish, natijalari haqida Statistika organi rahbari va jamoatchilikni xabardor qilib boradi.

6. Komissiya o'z vakolatlari doirasida:

Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydi;

Statistika organi davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini bilan bog'liq masalalarini ko'rib chiqish jarayonida zarur axborotni so'rab oladi; ko'rib chiqish uchun

kiritilgan masalalarni hal etish uchun Komissiya majlislariga ekspertlar va mutaxassislarni jalb qiladi; odob-axloq qoidalariga oid masalalar yuzasidan Statistika organi davlat xizmatchilariga tegishli maslahat va tushuntirishlar beradi; zarur hollarda, Komissiyada ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha Statistika organi davlat xizmatchisini intizomiy javobgarlikka tortish yuzasidan Statistika organi rahbariga taklif kiritadi.

7. Komissiya Statistika organining tarkibiy bo'linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslari va jamoatchilik bilan hamkorlik qiladi.

8. Komissiya faoliyatini tashkil qilish va Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish ushbu nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

3-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

9. Komissiya majlislari zaruriyatga qarab o'tkaziladi.

Komissiya majlislari ochiq tarzda o'tkaziladi. Zarur bo'lgan hollarda Komissiya yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

10. Komissiya majlisini Komissiya raisi, u yo'qligida esa, uning topshirig'iga binoan Komissiya a'zolaridan biri olib boradi. Komissiya majlisida bayonnoma yuritiladi, u raislik qiluvchi va Komissiya kotibi tomonidan imzolanadi.

11. Komissiya majlislari, agar ularda Komissiya a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

12. Komissiyaning navbatdagi majlisi to'g'risida uning raisi Komissiya a'zolariga yozma ravishda, qoida tariqasida, kamida ikki kun oldin xabar qiladi, shuningdek, majlisning boshqa ishtirokchilarini oldindan xabardor etadi.

13. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan Komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Komissiyaning qarorlari Komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

14. Komissiya raisi:

Komissiya ishini tashkil etadi;

Komissiya majlislarini chaqiradi va o'tkazadi;

Komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi;

Statistika organining tarkibiy bo'linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslar va jamoatchilik bilan bo'lgan munosabatlarda Komissiya nomidan ish yuritadi;

Komissiya majlislarida Komissiya faoliyati to'g'risidagi axborot bilan so'zga chiqadi;

har yili Statistika organi rahbariga Komissiya faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi.

15. Komissiya kotibi:

Komissiyaning faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Komissiyaning navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Statistika organlari xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi; kun tartibiga muvofiq, Komissiya majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Komissiyaning a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Komissiya majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi;

Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi.

16. Komissiya a'zosi:

Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berishga;

Komissiyaning ko'rib chiqishi uchun masalalar va takliflar kiritishga; qarorlar tayyorlanishida, muhokamasida, qabul qilinishida, shuningdek, ularning amalga oshirilishini tashkil etishda hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga; ko'rib chiqilayotgan masalaga doir hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqa zarur axborot bilan tanishishga;

Komissiya qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda o'z nuqtayi nazarini bayon etishga haqli.

17. Komissiyasi a'zosi Komissiya majlisida hozir bo'lishi va o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.

Komissiya a'zosi Komissiya majlisida hozir bo'lish imkoni bo'lmaganda Komissiya raisini oldindan xabardor etishi lozim.

18. Komissiya majlisida ko'rilayotgan masalalar Komissiya raisi, kotibi va a'zolariga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan taqdirda o'zini o'zi rad qilishi shart.

4-bob. Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) choralari ko'rish

19. Komissiya Statistika organining kadrlar bo'linmalari bilan birgalikda muntazam ravishda davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va ularning buzilishini oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

Statistika organi davlat xizmatchilarida yuksak kasbiy madaniyatni, jamoada sog'lom ma'naviy mullit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;

Statistika organi davlat xizmatchilarini "halollik vaksinasi" bilan emlash, ya'ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma'rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish;

Statistika organiga taniqli ziyolilar, iiodkorlar, ma'naviyat va ma'rifat sohasining ko'zga ko'ringan namoyondalari, o'z sohasida yuksak natijalarga erishgan mehnat faxriylarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib borish;

Statistika organida xodimlarining kasbiy va boshqaruv ko'nikmalari o'sishini, shuningdek, ularning malakasini doimiy ravishda oshirishni, ular tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishlarini ta'minlash maqsadida ularning bilimlari va malakasini doimiy takomillashtirish ishlarini ta'minlash;

Statistika organi davlat xizmatchilarining iqtisodiy bilimlarini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini, intellektual va ma'naviy rivoilanishini oshirish maqsadida iqtisodiy va huquqiy o'qishlar tashkil etish; yangi ishga qabul qilingan Statistika organi davlat xizmatchilarini odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish borasida staitirovkadan o'tkazish va ular bilan profilaktik suhbatlar tashkil qilish;

Statistika organi davlat xizmatchilarini malaka oshirish kurslariga, xalqaro seminarlar, konferensiyalar va shu kabi boshqa tadbirlarga yuborish, ular tomonidan o'z kasbiy darajasi va axloqiy sifatlarini mustaqil oshirishlari uchun shart-sharoit yaratib berish.

20. Komissiya Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) borasidagi o'z faoliyatini Komissiya tomonidan tasdiqlanadigan choraldik ish reialari asosida olib boradi.

21. Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) choralari Komissiya tomonidan Statistika

organining tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari hamda kasaba uyushmalari qo'mitalari bilan birealikda tashkil etiladi.

22. Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilishining oldini olish (profilaktika) choralari natijadorligi yil yakunlari bo'yicha o'tkaziladigan Komissiya yig'ilishida muhokama qilinadi.

5-bob. Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi

23. Komissiya Statistika organi davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishlari bilan bog'liq masalalarni: Statistika organi rahbarining topshirig'iga ko'ra; huquqni muhofaza qiluvchi organlarning murojaatiga asosan; davlat xizmatchilarining, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga binoan; o'z tashabbusi bilan ko'rib chiqadi.

24. Komissiya majlisiga, haqiqiy holatlarni aniqlash va xolisona qaror qabul qilish maqsadida, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilayotgan Statistika organi davlat xizmatchisi, zarur bo'lgan hollarda esa, murojaat qiluvchi va boshqa shaxslar taklif etiladi. Komissiya majlisining vaqti va joyi haqida tegishli ravishda xabardor etilgan shaxslarning kelmasligi murojaatni ko'rib chiqish uchun

to'sqinlik qilmaydi.

25. Komissiya majlisida:

kun tartibidagi masala o'qib eshittiriladi;

Statistika organi rahbarining topshirig'i yoki Statistika organi davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalarini buzilganligi to'g'risidagi murojaat o'qib eshittiriladi; odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlikda ayblanayotgan Statistika organi davlat xizmatchisi va murojaatchilarning tushuntirishlari eshutiladi.

26. Statistika organi davlat xizmatchisi o'zining huquqi, sha'ni va qadr-qimmatiga, ishchanlik obro'siga daxl qiladigan murojaat bo'yicha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'zini himoya qilishga, Komissiyaga zarur materiallar hamda boshqa axborotlarni taqdim etishga haqli.

27. Majlis yakuni bo'yicha Komissiya Statistika organi davlat xizmatchisining harakatlarida odob-axloq qoidalarining buzilishi faktining mavjudligini yoxud mavjud emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

28. Odob-axloq qoidalarini buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda Komissiya tomonidan Statistika organi davlat xizmatchilariga quyidagi axloqiy ta'sir choralari qo'llaniladi: ogohlantirish; uzr so'rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish; davlat organi va tashkilotining kollegial yig'ilishlarida tanbeh berish.

29. Komissiya Statistika organi davlat xizmatchisiga nisbatan intizomiy ta'sir chorasini qo'llash uchun Statistika organi rahbariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

30. Komissiya tomonidan quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

komissiyada oldin ko'rib chiqilgan murojaat va aynan shu mazmundagi takror murojaatlar; anonim murojaatlar; qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

31. Komissiya qabul qilingan qaror haqida murojaat qiluvchiga, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilgan Statistika organi davlat xizmatchisiga va Statistika organi rahbariga yozma ravishda ma'lum qiladi.

32. Komissiya odob-axloq qoidalari Statistika organi rahbari tomonidan buzilgan taqdirda ularga nisbatan tegishli chora ko'rish masalasi yuzasidan takliflarni Milliy statistika qo'mitasi raisiga yuboradi.

33. Komissiyaning qarori ustidan Statistika organi rahbariga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

34. Statistika organi davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi haqidagi murojaat uning tashabbuskori tomonidan Komissiya qarori qabul qilinguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

35. Taraflar yarashgan, shuningdek, Statistika organi davlat xizmatchisi o'z xohishi bilan murojaatchidan oshkora uzr so'ragan hollarda, unga nisbatan ta'sir choralari qo'llanilmasligi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining
Odob-axloq komissiyasi
TARKIBI**

1.	HAMRAYEV Behzod Saylixonovich	O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi raisi, komissiya raisi
2.	IKRAMOV Azamjon Anvarjonovich	O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari, komissiya raisi o'rinbosari
3.	ZIYAYEV Zoxidjon Muratovich	O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari, komissiya raisi o'rinbosari
4.	SHERALIYEV Nurbek Abduxalilovich	Qo'mita kasaba uyushmasi raisi, komissiya a'zosi
5.	TALIPOVA Zulxumor Normatovna	Qo'mitaning xotin-qizlar kengashi raisi, komissiya a'zosi
6.	<i>Lavozim bo'yicha tayinlangan shaxs</i>	Qo'mitaning yoshlar yetakchisi, komissiya a'zosi
7.	SOLIYEV Orifjon Olimjon o'g'li	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i, komissiya a'zosi
8.	TO'XTAYEV Vaxob Oripovich	Yuridik bo'lim boshlig'i, komissiya a'zosi
9.	MAXMUDOVA Muazzam Mirraxmatovna	Kadrlar bo'limi bosh mutaxassisi, komissiya kotibi

Izoh: Komissiya tarkibidagi shaxslar boshqa ishga o'tganda, ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan (qabul qilingan) shaxslar yoxud tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.